

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
THE MINISTRY OF HIGHER
EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI OLMALIQ
FILIALI

ALMALYK BRANCH OF
TASHKENT STATE TECHNICAL
UNIVERSITY NAMED AFTER
ISLAM KARIMOV

BUYRUQ

Olmaliq sh.

«22» 02 2024-y.

№ 01/9-05-30

Shartnomalar tuzish bo'yicha
Xarid komissiya a'zolari
tarkibini tuzish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-sonli va 2021-yil 2-iyuldagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PQ-5171-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida:

BUYURAMAN

№	F.I.O	Lavozimi	Komissiyadagi o'rni
1	A.Samadov	Filial direktori	Komissiya raisi
2	B.Suttibayev	Ishlar boshqarmasi boshlig'i	Rais o'rinbosari
3	S.O'sarov	Yuriskonsult	a'zo
4	D.Dadajonova	Reja-moliya bo'limi boshlig'i	a'zo
5	E.Shukurov	Bosh hisobchi	a'zo
6	F.Gaipov	Bosh hisobchi o'rinbosari	a'zo
7	A.Djuraxanov	Bosh muxandis	a'zo
8	A.Bainazarov	Korrupsiyaga qarshi "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i	a'zo
9	A.Yo'ldoshev	Xarid bo'yicha bosh mutaxassis	Komissiya kotibi

Har bir komissiya a'zosining vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

1. Filial ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovar, ish va xizmatlar yuzasidan o'tkaziladigan majlislarda qatnashish;

2. Elektron davlat xaridlari maxsus portalida xarid jarayonida ishtirok etishi uchun elektron raqamli imzo olish;

3. Filial ehtiyoji uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilishga berilgan talabnomalarni asoslilikini o'rganib chiqish va xulosa berish;

4. Komissiya yig'ilishida talabnomalar bo'yicha tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchi yoki pudratchilar o'rtasida eng arzon, hamda sifatli tovar (ish, xizmat)larni taklif etganlarini o'rganib chiqib, shaxsiy elektron imzo orqali mustaqil ravishda shartnomani tuzish yuzasidan xulosa berish va qaror qabul qilish;

5. Filial direktorining 2023-yil 14-fevraldagi "Shartnomalar tuzish bo'yicha xarid komissiya a'zolari tarkibini tuzish to'g'risida"gi 01/9-05-20-son buyrug'i bekor qilinsin.

6. Devonxona mudirasi (D.Narmetova)ga:

Buyruq nusxasini o'rnatilgan tartibda tegishli bo'limlarga tarqatish vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur buyruq ijrosining nazorati Ishlar boshqarmasi boshlig'i B.Suttibayev zimmasiga yuklatilsin.

Asos: O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 24-iyuldagi 684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni.

Direktor



A.Samadov